



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

3 (89) 2026

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Д.Т. АШУРОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

3 (89)

2026 *март*

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com
E: ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

Received: 20.02.2026, Accepted: 06.03.2026, Published: 10.03.2026

УДК 617-089.5:617.55/.58-089.1

QORIN BO'SHLIG'I VA CHANOQ A'ZOLARIDAGI SIMULTAN JARROHLIK AMALIYOTLARIDA MULTIMODAL ANESTEZIYANING AFZALLIGI

Sharipov I.L. <https://orcid.org/0009-0002-7076-2054>

Pardayev Sh.K., <https://orcid.org/0000-0001-8248>

Samarqand davlat tibbiyot universiteti. O'zbekiston, Samarqand sh.,
Amir Temur ko'chasi, Tel: +99818 66 2330841 E-mail: sammi@sammi.uz

✓ Rezyume

Ushbu maqolada qorin bo'shlig'i va kichik chanoq a'zolarida o'tkaziladigan simultan jarrohlik amaliyotlarida anesteziologik qo'llanmani takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Simultan operatsiyalar bemorning umumiy fiziologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan eng murakkab jarrohlik amaliyotlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli anesteziologning to'g'ri yondashuvi, anesteziya turini oqilona tanlash va to'liq intraoperatsion monitoring katta ahamiyatga ega. Maqolada anesteziyaning optimal usullarini tanlash va samarali o'tkazish, operatsiyadan keyin og'riqsizlantirish, gemodinamik barqarorlikni saqlash va asoratlar xavfini kamaytirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari simultan operatsiyalar samaradorligini oshirish va bemorlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: simultan operatsiyalar, anesteziologik qo'llanma, qorin va chanoq bo'shlig'i, kombinatsiyali anesteziya, gemodinamik barqarorlik, operatsiyadan keyin og'riqsizlantirish.

ПРЕИМУЩЕСТВА МУЛЬТИМОДАЛЬНОЙ АНЕСТЕЗИИ ПРИ СИМУЛЬТАННЫХ ОПЕРАЦИЯХ НА ОРГАНАХ БРЮШНОЙ ПОЛОСТИ И МАЛОГО ТАЗА

Шарипов И.Л., <https://orcid.org/0009-0002-7076-2054>

Пардаев Ш.К., <https://orcid.org/0000-0001-8248-203>

Самаркандский государственный медицинский университет Узбекистан, г.Самарканд,
ул. Амира Темура, Тел: +99818 66 2330841 E-mail: sammi@sammi.uz

✓ Резюме

В настоящей статье рассматриваются вопросы совершенствования анестезиологического пособия при симультанных хирургических вмешательствах на органах брюшной полости и малого таза. Симультанные операции - одни из наиболее сложных хирургических вмешательств, оказывающих значительное влияние на общее физиологическое состояние пациента. В связи с этим правильный подход анестезиолога, рациональный выбор вида анестезии и полноценный интраоперационный мониторинг имеют большое значение. В статье анализируются современные подходы к выбору и эффективному проведению оптимальных методов анестезии, послеоперационному обезболиванию, поддержанию гемодинамической стабильности и снижению риска осложнений. Результаты исследования направлены на повышение эффективности симультанных операций и обеспечение безопасности пациентов.

Ключевые слова: симультанные операции, анестезиологическое пособие, брюшная полость и малый таз, комбинированная анестезия, гемодинамическая стабильность, послеоперационное обезбоживание.

ADVANTAGES OF MULTIMODAL ANESTHESIA IN SIMULTANEOUS OPERATIONS ON THE ABDOMINAL AND PELVIC ORGANS

Sharipov I.L. <https://orcid.org/0009-0002-7076-2054>

Pardayev Sh.K., <https://orcid.org/0000-0001-8248-203>

Samarkand State Medical University Uzbekistan, Samarkand, st. Amir Temur,
Tel: +99818 66 2330841 E-mail: sammi@sammi.uz

✓ Resume

This article examines issues related to improving anesthesiological management for simultaneous surgical procedures on the abdominal and pelvic organs. Simultaneous operations are among the most complex surgical interventions, having a significant impact on the patient's overall physiological state. Therefore, the anesthesiologist's correct approach, rational selection of anesthesia type, and comprehensive intraoperative monitoring are of great importance. The article analyzes modern approaches to selecting and effectively conducting optimal anesthesia methods, providing postoperative analgesia, maintaining hemodynamic stability, and reducing the risk of complications. The research findings are aimed at increasing the efficacy of simultaneous operations and ensuring patient safety.

Keywords: simultaneous operations, anesthesiological management, abdominal and pelvic cavity, combined anesthesia, hemodynamic stability, postoperative analgesia.

Dolzarbligi

Zamonaviy tibbiyotda jarrohlik amaliyotlarining murakkabligi va texnologik jihatdan rivojlanishi bilan bir vaqtning o'zida bir nechta a'zolarida o'tkaziladigan simultan operatsiyalar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda. Qorin bo'shlig'i va kichik chanoq a'zolaridagi simultan operatsiyalar tibbiyotda murakkab, ammo samarali yondashuv sifatida keng tan olingan. So'nggi yillardagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, simultan jarrohlik aralashuvlari bemorlarning tiklanish davrini qisqartirish, statsionarda qolish muddatini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi [7,10, 11]

Shu bilan birga, ushbu turdagi operatsiyalar anesteziologik jihatdan yuqori xavfli hisoblanadi, chunki ikki va undan ortiq a'zoda bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan aralashuvlar bemor organizmiga sezilarli yuklama beradi [7,6,9].

Xorijiy manbalar (J. Morgan, 2020; R. Miller, 2021) simultan operatsiyalarda anesteziya chuqurligini nazorat qilish, gemodinamik barqarorlikni saqlash va intraoperatsion stress reaksiyasini kamaytirish asosiy ustuvor vazifalar ekanligini ko'rsatadi. Bunda mahalliy va umumiy anesteziyaning kombinatsiyasi, epidural blokada va multimodal analgeziya kabi usullar xavfsizlik darajasini oshiradi. Mahalliy adabiyotlarda (T. Xolmurodov, 2019; N. To'raev, 2022) bu kabi operatsiyalarni bajarishda bemorning yoshi, yurak-qon tomir tizimining holati, surunkali kasalliklar mavjudligi va operatsiya davomiyligini hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi[1,2].

Tadqiqot maqsadi. Qorin bo'shlig'i va chanoq a'zolaridagi simultan jarrohlik amaliyotlarida anesteziologik qo'llanmani takomillashtirish samaradorligini baholash.

Materiallar va metodlar

Tadqiqotlar SamDTU ko'p tarmoqli klinikasining xirurgiya va ginekologiya bo'limlarida o'tkazilgan simultan operatsiyalar 75 nafar bemorlarda olib borilgan klinik kuzatuv natijalari o'rganildi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 45+-10,5 ni tashkil qildi. Barcha bemorlarda anesteziologik xavf ASA bo'yicha II-III klassga to'g'ri keldi. Ular uchta guruhga bo'lindi: birinchi guruhda – umumiy ingalyasion anesteziya (propofol + izofluran+fentanil+O'SV), ikkinchi guruhda – epidural + vena ichiga yuboriladigan kombinatsiyalashgan anesteziya (bupivakain+ketamin+O'SV), uchinchi guruhda esa – faqat total vena ichiga yuboriladigan anesteziya (TVIA) (propofol+ketamin+fentanil+O'SV) qo'llanildi. Premedikatsiya uchun kechki 5 mg tabletk va anestezidan 30-40 daqiqa avval atropin 0,5-1mg atropin+dimedrol 10 mg+omnupon 10mg mushak orasiga yuborildi. Miorelaksatsiya uchun arduan 0,04-0,06 mg/kg sarflandi. Epidural bo'shliq punktsiya va kateterizatsiyasi umumiy qabul qilingan qoidalar asosida bajarildi. Kuzatuv davomida bemorlarning yurak urish tezligi, arterial bosimi, qonning kislorod bilan to'yinishi (SpO₂), operatsiya davomiyligi, narkozdan chiqish vaqti va asoratlar baholandi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Tadqiqot natijalariga ko'ra, anesteziyaning samarali usulini tanlash bemor xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda asosiy fiziologik ko'rsatkichlar tahlili keltirilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, epidural va vena ichiga yuboriladigan anesteziyaning kombinatsiyasi (II guruh) bemorlarning gemodinamik barqarorligini yaxshiroq saqlash imkonini berdi.

Yurak urish tezligi va arterial bosimdagi o'zgarishlar minimal darajada bo'ldi, SpO₂ ko'rsatkichlari esa maksimal darajada saqlanib turdi. Bundan tashqari, ushbu guruhdagi bemorlar anesteziyadan so'ng tezroq uyg'onishdi va og'riqni sezilarli darajada kam his qilishdi. Ushbu natijalar multimodal yondashuvning afzalligini tasdiqlaydi. Umumiy ingalyasion anesteziya qo'llanilgan birinchi guruhda yurak urish tezligi va arterial bosimning tebranishlari nisbatan yuqori bo'ldi, bu esa simpatik asab tizimining yuqori faolligidan dalolat beradi. Shuningdek, anesteziyadan uyg'onish vaqti boshqa guruhlariga qaraganda uzoqroq davom etdi. Bemorlarda og'riqni baholash (VASH) 4,8 ballni tashkil etdi, bu epidural anesteziyaga qaraganda sezilarli darajada yuqoridir.

Simultan operatsiyalardagi turli anesteziyalarda fiziologik ko'rsatkichlar

T/p	Ko'rsatkichlar	I guruh (ingalyasion) (n=25)	II guruh (epidural + vena ichiga) (n=25)	III guruh (TVIA) (n=25)
1	YUrak urish tezligi (zarba/daq)	92 ± 4,3	85 ± 3,1	88 ± 3,6
2	Arterial bosim (sistolik, diastolik mm simob ustuni)	130/80 ± 6	120/75 ± 4	125/78 ± 5
3	SpO ₂ (%)	97,5 ± 0,6	98,2 ± 0,5	97,8 ± 0,5
4	Narkozdan chiqish vaqti (daq)	19 ± 2,5	12 ± 1,8	15 ± 2,0
5	Og'riq shkalasi (VASH, 0–10 ball)	4,8 ± 0,5	2,3 ± 0,4	3,5 ± 0,5
6	Operatsiya davomiyligi (daq)	145 ± 12	140 ± 11	142 ± 13
7	Operatsiyadan keyingi asorotlar (%)	18%	8%	12%

Total vena ichiga yuboriladigan anesteziya (TVIA) usuli o'rtacha natijalarni ko'rsatdi. Garchi ushbu usulda bemorlarning fiziologik ko'rsatkichlari nisbatan barqaror bo'lsa-da, anesteziyadan chiqish vaqti biroz ko'proq bo'ldi. SHunga qaramay, TVIA usuli respirator (nafas olish) muammolari bor bemorlar uchun xavfsizroq variant sifatida tavsiya etiladi. Operatsiyadan keyingi davrda kuzatilgan asorotlar ham anesteziya turiga bog'liq bo'ldi. Epidural anesteziyaning kombinatsiyalashgan usuli qo'llanilgan bemorlarda asorotlar 8% holatda kuzatilgan bo'lsa, ingalyasion anesteziyada bu ko'rsatkich 18% ni tashkil etdi. Eng ko'p uchraydigan asorotlar sirasiga arterial gipotenziya, qisqa muddatli nafas etishmovchiligi va engil ko'ngil aynishi kirdi.

Tahlilning asosiy jihatlar:

- Kombinatsiyalashgan epidural + vena ichiga yuboriladigan anesteziya gemodinamik barqarorlikni eng yaxshi tarzda ta'minlaydi.

- Ushbu usulda og'riqni nazorat qilish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'ladi.
- Operatsiyadan keyingi tiklanish davri qisqaradi va asorotlar soni kamayadi.
- Anesteziya usulini tanlashda bemorning yoshi, yurak-qon tomir kasalliklari borligi, operatsiyaning davomiyligi va hajmini hisobga olish lozim.

- Tadqiqotda, shuningdek, anesteziyani monitoring qilish tizimlarining samaradorligi ham baholandi. YUrak urish tezligi, arterial bosim, nafas olish chastotasi va SpO₂ ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatib borish anesteziologga tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

- Bunday monitoringning joriy etilishi bemorlar xavfsizligini 15–20% ga oshirishi qayd etildi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdakim qorin bo'shlig'i va kichik chanoq a'zolaridagi bir vaqtda o'tkaziladigan (simultan) operatsiyalar zamonaviy tibbiyotning eng samarali va shu bilan birga murakkab yo'nalishlaridan biridir. Bunday operatsiyalarni o'tkazish nafaqat jarrohning texnik mahoratini, balki anesteziologning puxta tayyorgarligi va to'g'ri qarorlar qabul qilishini talab etadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, anesteziologik ta'minotni takomillashtirish simultan operatsiyalar muvaffaqiyatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xususan, multimodal yondashuv - epidural va vena ichiga yuboriladigan anesteziyaning kombinatsiyasi - bemorlar

xavfsizligini ta'minlash, samarali og'riqsizlantirish va operatsiyadan keyingi asoratlarni kamaytirish uchun eng ishonchli variantlardan biri sifatida o'zini namoyon etdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, epidural va umumiy anesteziya birgalikda qo'llanilganda yurak urish tezligi, arterial bosim va SpO₂ ko'rsatkichlari barqaror saqlanadi. Bundan tashqari, narkozdan keyingi uyg'onish va tiklanish davri qisqaradi, shuningdek, bemorlarda og'riq darajasi pasayadi. Bu gemodinamik barqarorlikni saqlash va fiziologik stressni kamaytirish hisobiga organizmning operatsiyaga moslashishini yaxshilaydi. Umumiy ingalyasion anesteziya bilan solishtirganda, multimodal yondashuvda asoratlardan uchrashi 10% dan ko'proqqa kamaydi. Ushbu natija, ayniqsa, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarida surunkali o'zgarishlari bo'lgan bemorlar uchun klinik ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, simultan operatsiyalarda anesteziologik ta'minotni takomillashtirish nafaqat texnik jihatdan murakkab, balki ilmiy asoslangan jarayon bo'lishi lozim. Epidural va vena ichi anesteziyasi, mioplegiya fonida O'SV kombinatsiyasiga asoslangan multimodal yondashuv amaliyotda eng samarali usul sifatida o'zini oqladi. U bemorning holatini barqarorlashtiradi, og'riq sindromini kamaytiradi va operatsiyadan keyin tez tiklanishga yordam beradi. Epidural bo'shliq kateterizatsiyasi operatsiyadan keyingi og'riq sindromini samarali barham berishda muhim o'rin egallaydi. SHu bilan birga ichaklar va buyraklar faolligi aktivlashib, bemorlarni ertaroq aktivlashtirish imkonini beradi, natijada bemorning statsionarda qolishini kamaytiradi, demak iqtisodiy jihatdan ham afzaldir.

Klinik amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar:

- Simultan operatsiyalarni bajarishda multimodal anesteziya usuliga (epidural + vena ichiga+O'SV) ustuvorlik beriladi.
- Anesteziya preparatlari bemorning yoshi, tana vazni va surunkali kasalliklari borligini hisobga olgan holda tanlanishi kerak.
- Intra- va postoperatsion monitoring o'tkazilishi shart.
- Operatsiyadan keyingi og'riqni qoldirish uchun og'riqsizlantirish usulini individual tarzda tanlash va bunda uzaytirilgan epidural analgeziya maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Агзамходжаев Т.С., Файзиев О.Я., Юсупов А.С., Тураева Н.Н. Комбинированная мультимодальная анестезия при абдоминальных операциях у детей. Детская хирургия. 2020;24(3):188-193.
2. Ахмедов Б.Н. Симультан операцияларда оғриқни бошқаришнинг замонавий усуллари. Ўзбекистон тиббиёт журнали. 2022;(3):45-52.
3. Бекмуродов М.С. Анестезия дори воситаларининг фармакодинамикаси ва уларнинг бемор физиологиясига таъсири. Самарқанд: СамМИ нашриёти; 2023. 178 б.
4. Сатвалдиева Э.А., Файзиев О.Я. Мультимодальный подход к периоперационной защите у детей в абдоминальной хирургии: проспективное сравнительное исследование. Регионарная анестезия и острая боль. 2023;17(2):101-113.
5. Сатвалдиева Э.А., Куралов Э.Т., Ходжиев Б. Мультимодальная безопиоидная анальгезия в детской абдоминальной хирургии: безопасность и скорость восстановления. Хирургия. 2025;3(1):8-14.
6. Жониев С.Ш., Пардаев Ш.К., Муминов А.А. Использование модифицированного метода предоперационной подготовки и анестезии в хирургии щитовидной железы. International scientific review of the problems of natural sciences and medicine. Boston; 2019. p.177-189.
7. Насриев С.А., Хамдамова Э.Г., Маллаев и др. Изменение периферической гемодинамики во время проведения седельной спинальной анестезии при проктологических операциях. Вопросы науки и образования. 2018;7(19). Доступно по: <https://cyberleninka.ru/article/n/izmenenie-perifericheskoy-gemodinamiki-vo-vremya-provedeniya-sedelnoy-spinalnoy-anestezii-pri-proktologicheskikh-operatsiyah>
8. Матлубов М.М., Нематуллоев Т.К., Хамдамова Э.Г. Сравнительная оценка гемодинамических эффектов спинальной анестезии в зависимости от положения

- больного после введения гипербарического раствора бупивакаина больным с гипертонической болезнью. Высшая школа: научные исследования. 2020:100-107.
9. Матлубов М.М., Рахимов А.У., Семенихин А.А. Комбинированная спинально-эпидуральная анестезия при абдоминальном родоразрешении. Анестезиология и реаниматология. 2010;(6):71-73.
 10. Шарипов И.Л. Снижение интоксикации сочетанными методами экстракорпоральной детоксикации при почечной недостаточности у детей. Детская хирургия. 2014;1:56-62.
 11. Шарипов И.Л. Показатели системной гемодинамики при сочетанном применении методов заместительной терапии у детей с почечной недостаточностью. Medicus. 2020;5(35):13-18.
 12. Шарипов И.Л. Оценка сочетанного применения методов экстракорпоральной детоксикации у детей с почечной недостаточностью. Врач-аспирант. 2012;54(5.2):332-341.
 13. Matlubov M.M., et al. Hemodynamic indicators in pregnant women with obesity of various degrees of expression. European Journal of Molecular and Clinical Medicine. 2021;8(2):2373.
 14. Sharipov I., Xolbekov B.K., Akramov B.R. Hemodynamic gradations with combined use of extracorporeal detoxification methods in children with renal failure. European Journal of Molecular and Clinical Medicine. 2020;7(3):2555-2563.
 15. Sharipov I.L., Yusupov J.T., Xolbekov B.K. Personalization and preventative premedication: used drugs value and efficiency. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2020;3(2):740-748.
 16. Sharipov I.L., Qurbanov N.Z., Rakhmonov S. Improving airway patency during operations in the maxillofacial region in children. Academia Repository. 2023;4(12):140-145.
 17. Sharipov I.L., Xolbekov B.K., Kurbonov N.Z. Children improvement of anesthesia in ophthalmological surgery. World Scientific Research Journal. 2023;20(1):107-112.
 18. Kurbanov N.Z., Sharipov I.L. Improvement of anesthetic protection in simultaneous operations on abdominal and pelvic organs. World Scientific Research Journal. 2020;20(1):113-116.
 19. Kurbanov N.Z., Sharipov I.L. Improving anesthetic protection and blood pressure control in simultaneous abdominal and pelvic operations in obese patients. Journal of Applied Medical Sciences. 2023;7(1):97-101.
 20. Kurbanov N.Z., Sharipov I.L. Increasing anesthesiological protection during simultaneous operations on the abdominal and pelvic region in patients with obesity. Academia Repository. 2023;4(11):321-325.

Qabul qilingan sana 20.02.2026